

“TASDIQLAYMAN”
Gidrometeorologiya xizmati agentligi
direktori



Sh.Khabibullayev

Gidrometeorologiya xizmati agentligi Markaziy apparat
yig'ilishining 12-son
B A Y O N I

2026-yil 2-mart

Toshkent shahri

Raislik qildi: Sh.Khabibullayev – O'zgidromet direktori.

Qatnashdilar: Direktor maslahatchilari, markaziy apparatning boshqarma, bo'lim boshliqlari va mas'ul xodimlari, Meteoinfokom, Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti (ro'yxat bo'yicha),

KUN TARTIBI:

1. Agentlik tizimida pensiya yoshiga yetgan, biroq faoliyatini davom ettirayotgan xodimlar bilan bog'liq kadrlar masalalarini qonunchilik doirasida tartibga solish, lavozimlar bo'yicha yosh mutaxassislarni jalb etish va tayyorlash, shuningdek to'liq/yarim stavka va boshqa bandlik shakllarida ishlovchi xodimlar bo'yicha ish jadvallari va mehnat intizomi masalalarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish: Agentlik tizimida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlar o'rtasida xizmat odobi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida.

3. Ijro-intizomi, murojaatlar bilan ishlash, tizim ishchi-xodimlarining shaxsiy mas'uliyati va boshqa amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar to'g'risida.

(Sh.Khabibullayev... Sh.Khabibullayev)

Yig'ilish kun tartibidagi masala yuzasidan 2026-yilning mart oyida “app.ijro.uz” tizimida nazoratga olingan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish hamda bayonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlaridagi topshiriqlar ijrosini samarali tashkil qilish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilish davomida, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ko'rib chiqildi, mazkur yo'nalishda

xodimlarga tushuntirish ishlari olib borildi hamda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish zarurligi bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi **K.Baxromov** "Ijro.gov.uz" tizimida **mart oyida** bajarilishi belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida nazoratni kuchaytirsin hamda **mart oyi** davomida belgilangan topshiriqlarni sifatli ta'minlash uchun barcha mas'ullarga ogohlantirish bersin.

2. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i **G.Unorovaga 3 kun muddatda** Vazirlar Mahkamasining **VMQ-72-son** "Davlat organlari va tashkilotlarning ijro intizomiga mas'ul tuzilmasi xodimlarining malakasini oshirish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori talablari asosida **ijro intizomi yo'nalishida malaka oshirishi lozim bo'lgan xodimlar ro'yxatini shakllantirish**, zarurat va imkoniyatdan kelib chiqib **mas'ul boshqarma boshliqlari (rahbar xodimlar)ni ham o'qitishga kiritish masalasini ko'rib chiqish** hamda shakllantirilgan ro'yxatni belgilangan tartibda **Adliya vazirligiga taqdim etish** uchun **rahbariyat nomidan yuboriladigan xat loyihasini tayyorlab kiritish** vazifasi yuklansin.

3. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i **G. Unorovaga** hamda Toshkent viloyat hududiy gidrometeorologiya markazi rahbari **X.Toshpulatov** Toshkent viloyatida faoliyat yurituvchi qonunchilik doirasida pensiya yoshiga yetgan, 70 yoshdan oshgan yoshi katta xodimning ayrim hollarda lavozim majburiyatlarini lozim darajada bajara olmasligi, jismoniy holati va mehnatga layoqati cheklanishi, hamda sog'lig'i bilan bog'liq sabablarga ko'ra tez-tez mehnatga vaqtincha layoqatsizlik (ta'til) rasmiylashtirishi natijasida ish jarayonida uzilishlar yuzaga kelayotgani inobatga olingan holda, mazkur yo'nalishda egallab turgan lavozimlari bo'yicha **bosqichma-bosqich yosh mutaxassislarni jalb etish va tayyorlash** choralari belgilash to'g'risida tegishli takliflarni rahbariyatga kiritsin.

4. Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i **G. Unorova markaziy apparat va hududiy bo'linmalarda to'liq stavka, yarim stavka va boshqa bandlik shakllarida** ishlayotgan xodimlarning ishga kelib-ketishi hamda **ish jadvallari amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq** tuzilganligi qayta ko'rib chiqilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda **ish rejimining belgilangan tartibda to'g'ri tashkil etilish bo'yicha buyruq loyihasini rahbariyatga kiritsin.**

5. 8-mart — Xotin-qizlar bayrami yakshanba kuniga to'g'ri kelishi munosabati bilan Agentlikda bayram tadbirini **2026-yil 6-mart** kuni o'tkazish **belgilansin** hamda mazkur tadbir haqida **barcha xodimlar belgilangan tartibda xabardor qilinib**, ma'lumot uchun **qabul qilinsin.**

6. Yuqorida bayon etilgan topshiriqlarning barchasi bo'yicha belgilangan vazifalar **bir hafta muddatda** bajarilishi belgilansin hamda ijrosi mas'ullar tomonidan

belgilangan tartibda ta'minlansin.

7. Ushbu yig'ilish qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.